

Date: 21st May-2025

MA'MURIY SUDLARDA ISH YURITISH HUSUSIYATLARI.

Normatova Muxarram

Namangan davlat universiteti davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrası
o'qituvchisi

Annotasiya: ushbu maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishda nizolarni qonunchilik asosida hal qilish haqida so'z boradi. Muallif huquqiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida ma'muriy nizolarni qonunchilik asosida hal qilishning o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy ishlarni qonunchilik asosida hal qilish.

Аннотация: в данной статье речь идет о правовом разрешении споров в административном судебном порядке. Автор, опираясь на правовую информацию, на основе существующей научной литературы изучил и проанализировал особенности разрешения административных споров на основании законодательства.

Ключевые слова: Разрешение административных дел на основании законодательства.

Abstract: This article deals with the legal resolution of disputes in administrative court proceedings. The author, relying on legal information, studied and analyzed the specific aspects of resolving administrative disputes on the basis of legislation on the basis of existing scientific literature.

Key words: Resolution of administrative cases on the basis of legislation.

Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanishi bilan bog'liq konstitusiyaviy normaning amalga oshirilishini ham ta'minlaydi.

Mamlakatimizdagi taniqli yuruslar tomonidan berilgan tasnifda huquqiy davlatda qonuniylik, insonparvarlik, adolat, demokratik tamoyillariga va umuman xalqaro huquq normalari bilan tan olingan inson huquqlariga mos kelishi kerak bo'lgan qonunlardan boshlanadi.

Sudlar tomonidan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal etishda ma'muriy sud ishlarini qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi huquq tizimidagi "qonuniylik" tushunchasiga mos bo'lib, ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining jinoyat-prosessual qonunchiligida "qonuniylik" prinsipi deb nomlansa, ma'muriy, fuqarolik hamda iqtisodiy-prosessual qonunchilikda "sud ishlarini qonun hujjatlari asosida hal qilish" prinsipi sifatida belgilangan.

"Qonuniylik" hamda "sud ishlarining qonun hujjatlari asosida hal qilish" tushunchalari mazmun jihatdan o'zaro biri biriga mos ekanligini inobatga olib, uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: ya'ni, ishni ko'rish jarayonida ma'muriy ish yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan



Date: 21st May-2025

qoidalarga rioya qilish hamda ma'muriy ishning mazmuni va holatlari qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga to'g'ri va mos kelishi, shuningdek, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlarni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarda qonunga rioya etilishidan iborat.

Shu o'rinda, barcha fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlarining buzilgan hamda nizolashayotgan huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini sud himoyasida bo'lish orqali tiklashi mumkinligi ham qonun ustuvorligining konstitusiyaviy norma bilan kafolatlanganligi e'tiborga molik jihat hisoblanadi.

Ma'muriy sud ishlarini qonun hujjatlari asosida hal qilish (yoki qonuniylik) prinsipiga ilmiy yondashuvlarning tahlili yuzasidan, shuni ta'kidlash lozimki, bu prinsipning asosiy kategoriyasi bu "qonuniylik" tushunchasidir.

Qonuniylik tushunchasining ilmiy jihatdan tahlilini quyidagicha izohlash mumkin: ya'ni, birinchidan, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonun va boshqa normativ qoidalarni barqaror ravishda bajarishi, ikkinchidan, davlatning qonuniylikni ta'minlashdagi asosiy boshqaruvchilik rolining mavjudligi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda "qonuniylik" tushunchasiga oid ilmiy yondashuvlarni o'rganish davomida qonuniylik prinsipining nazariy va amaliy jihatdan isbotlanganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, huquqshunos olimlarimiz "qonuniylik"ni davlat organlari, mansabdor shaxslar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar va ularning birlashmalari tomonidan qonun va qoidalarga aniq va og'ishmay rioya qilishi hamda uni ijro etishi sifatida qaraydi. Boshqa bir huquqshunos olim qonuniylikni umumiy majburiyatni ifodalovchi huquq subekti sifatida; jamiyat va uning a'zolari huquqiy ongida shakllanadigan g'oya sifatida; ijtimoiy-siyosiy hayotning maxsus tartibi sifatida qaraydi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinib, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari kerakligi bilan, shuningdek, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi MSYutKning 15-moddasiga muvofiq, sud ma'muriy ishlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qilishi, ma'muriy ishni ko'rayotganda ma'muriy organning hujjati qonunga muvofiq emasligini, shu jumladan hujjat vakolat doirasidan chetga chiqilgan holda qabul qilinganligini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qilishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, milliy qonunchiligimizda nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llashi, bunday normalar ham mavjud bo'lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqib hal qilinishi belgilab qo'yilgan.



Date: 21st May-2025

Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar fuqarolar va yuridik shaxslarning foydasiga talqin etiladi.

Ma'muriy ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi sudga nizoni, shu jumladan, ma'muriy ishni, sud ishlari yuritishning maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda va belgilangan tartibda qaror qabul qilish majburiyatini yuklasa, ikkinchidan, ushbu prinsip ma'muriy ish yuritishni amalga oshirishning normativ qoidalariga rioya qilishni ta'minlaydi. Uchinchidan, nizoli munosabatlarni hal qilishda va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida qonunni qo'llashda aniq tartibni belgilaydi.

Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda qonunning oliy yuridik kuchi quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

-ma'muriy prosesning barcha qoidalari va qo'llaniladigan normalar Konstitutsiyaga mos bo'lishi;

-Konstitutsiyaning shubhasiz, aniqligi, qarorlarning Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi va nizo yuzaga kelganda ular qonuniy hal etilishi hamda qarorlar asoslangan bo'lishini belgilaydi.

Ma'muriy ish yuritishda ma'muriy ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipining muhim tarkibiy qismi bu nizoli huquqiy munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llashligi, bunday normalar ham mavjud bo'lmaganda, ya'ni qonunda bo'shliq bo'lgan taqdirda nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqib hal qilishi hisoblanadi. Sud nizoli munosabatlarni (bo'shliqlarni) tartibga soluvchi qonun normasi yo'qligida, "qonun analogiya"sini qo'llashi, ya'ni shu kabi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalaridan foydalanishi mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, sud tomonidan "qonun analogiyasi" institutidan foydalanishda uning quyidagi belgilari mavjudligiga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi: ya'ni, nizoli ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinmaganligi (yoki to'liq tartibga solinmaganligi), ijtimoiy munosabatlaridagi o'xshashliklar (ekvivalent)ning mavjud-mavjud emasligi.

Huquqshunos olimlar huquqiy munosabatning tartibga solinmaganligi yoki uning yo'qligida qabul qilingan qarorlar qonunchilikning umumiy tamoyillari ishlashiga zid bo'lmasligi kerakligini tushuntirib otganlar. Shunday qilib, sud qarorining ma'muriy ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipiga rioya qilingan holda qabul qilinganligi quyidagi elementlarda ko'rinadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy normalariga muvofiq bo'lishi;
- xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiqligi;
- qarorning moddiy va prosessual qonun normalariga muvofiq bo'lishi;
- prosessual qonun talablariga amal qilgan holda qabul qilinishi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining qarorlaridagi tushuntirishlarga amal qilingan holda qabul qilinishi lozim.



Date: 21st May-2025

O'zbekiston Respublikasi MSYutKda qonuniylikni ta'minlash, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilishning eng samarali institutlaridan biri bu dastlabki himoya chorasini qo'llash instituti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son;
2. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi». Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018 y., 03/18/462/0626-son;
3. 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Харакатлар стратегияси. ПФ-5635 18.01.2019 й., 06/19/5635/2502-сон);
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 06/20/6034/1103-son;
5. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0

